



Karimova Dildora Mirsabito'vna,
*Prognostlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar
instituti, iqtisodiyot fanlari doktori*



Safarova Nilufar Ne'matillayevna,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

NAMUNALI OILALARNING ASOSIY MEZONLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy namunali oila modellari va mezonlarining tadqiqiga bag'ishlangan. Tadqiqotda namunali oila ta'rifi va mezonlari, oilaning kuchli taraflarini o'rganish bo'yicha ilmiy nazariy qarashlar chuqur o'rganildi. O'zbekiston Respublikasida namunali oila mezonlarini aniqlash uchun aholi orasida so'rov o'tkazildi. So'rov natijalari mamlakatimizda namunali oilalar turmush tarzida ma'naviy-axloqiy omillar ustunlik qilishini ko'rsatdi. Oilalarda o'zaro tushunish va hurmat, oilaviy an'analarga sadoqat, ota-ona va farzandlar o'zaro ijobiy munosabati, oila a'zolari bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishlari kabi mezonlar muhimligi aniqlandi.

Tayanch so'zlar: namunali oila, ijobiy muloqot, oilaviy qadriyatlar, sog'lom muhit, ta'lim-tarbiya, oila modellari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные семейные модели и критерии. В ходе исследования было проведено углубленное изучение определения и критериев модельной семьи, а также научно-теоретических подходов к изучению сильных сторон семьи. Проведен опрос населения Республики Узбекистан для определения критериев модельной семьи. Результаты опроса показывают, что в нашей стране в образе жизни образцовых семей преобладают духовно-нравственные факторы. В качестве важных были определены такие критерии, как взаимопонимание и уважение в семье, верность семейным традициям, позитивные детско-родительские отношения, совместное проведение свободного времени членами семьи.

Ключевые слова: образцовая семья, позитивное общение, семейные ценности, здоровая среда, воспитание, семейные модели.

Annotation. This article examines modern family models and criteria. The study provided an in-depth study of the definition and criteria of a model family, as well as scientific theoretical approaches to the study of family strengths. A survey was conducted among the population in the Republic of Uzbekistan to determine the criteria for a model family. The results of the survey show that in our country, the spiritual and moral factors prevail in the lifestyle of exemplary families. Criteria such as mutual understanding and respect in families, loyalty to family traditions, positive parent-child relationships, and family members spending free time together were identified as important.

Keywords: exemplary family, positive communication, family values, healthy environment, education, family models.

Kirish. Oila jamiyatning eng qadimiy va barqaror instituti hisoblanib, odamzod tarixining dastlabki davrlaridan insonlarning ruhiy va jamoaviy qo'llab-quvvatlash orqali ehtiyojlarini qondirib keladi. So'nggi yillarda nikoh va oilaning dunyo bo'ylab tanazzulga yuz tutishi bot-bot bashorat qilinishiga qaramay, oila instituti o'zgarib va rivojlanib bormoqda¹. Jahonda oilaning turli-tuman tarkibiy tuzilishi uchraydi, lekin bu oilalarning hammasini qadriyatlar birlashtirib

turadi. Sog'lom oiladagi sog'lom insonlar kuchli jamiyatni yaratadi va hayoti davomida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda katta salohiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun jamiyat ham o'z tarafidan oilalarning kuchli tomonlarini rivojlantirishga mos muhit yaratishi zarur. Insonlar orasida namunali oila modeli targ'iboti nikoh va oila institutini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi².

¹ De Frain J., Sylvia M. (2007). Strong Families around the World. Marriage & Family Review, – V. 41(1-2), – P. 1-10, DOI: [10.1300/J002v41n01_01](https://doi.org/10.1300/J002v41n01_01).

² Доброгорская Е.А. Семья в современном мире. Психолого-педагогические проблемы личности и социального взаимодействия: материалы IV международной научно-практической конференции 15-16 мая 2013 года. – Прага: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2013. – 316 с.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda namunali oilalarning asosiy mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Buning uchun 2021-yilning sentabr-oktabr oylarida respublikaning 6 hududi – Andijon, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o'tkazilgan so'rov ma'lumotlaridan foydalanildi.

Olimlar tomonidan namunali oilalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi XX asrning boshlaridan kuzatila boshlandi. Oilani ijobiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganishar ekan, tadqiqotchilar “muvaqqafiyatli”, “sog'lom”, “mustahkam”, “mukammal”, “normal”, “yaxshi” kabi sifatlardan foydalanganlarini kuzatamiz, bu sifatlarning barchasi “namunali oila”ni aks ettirishini e'tiborga olib, ana shu ta'riflarni kengroq o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bu borada dastlabki ilmiy ishlardan angliyalik olim Vudxausning “250 ta muvaqqafiyatli oila tadqiqoti”ni keltirish mumkin. Olim o'z asarida “shu vaqtgacha oila tadqiqotlarining deyarli barchasi oddiy insonlar yoki jamiyatimizning zaif qatlamlariga qaratdi. Yangi tadqiqotlarda qiyin ahvoldagi oilalar, jamiyatga noqulayliklar tug'dirayotgan muammolarni o'rganishni davom ettirish kerak, lekin yaxshi yashayotgan, qiyinchiliklardan muvaqqafiyatli o'ta olgan oilalarni chetlab o'tmaslik lozim. Bunday oilalar buning uchun nima qilganini, qanday erishganini bilishimiz shart”, deb yozadi³.

Vudxaus (1930) namunali, muvaqqafiyatli oilaga ta'rif berish murakkab vazifa ekanini qayd etib o'tgan, chunki mazkur tushunchalar ijtimoiy fikrga mos ravishda zamon va makonda o'zgarib boradi. Keltirilgan ilmiy ishda namunali sifatida “shaxsiy hayotga yaxshi moslashgan va o'z ishida qoniqarli natijalarga erishgan shaxslarni yetishtirgan oilalar” tanlangan va moslashuvchanlikka alohida urg'u berilgan. Tadqiqot xulosasida nikoh ta'limini yanada ixtisoslashgan tarzda ta'minlash zaruriyati qayd etilgan, muvaqqafiyat esa muammolarni vaqtida aniqlash va ularni obyektiv tarzda hal etish bilan bog'langan.

Sog'lom oila modeli haqida Pollak (1957) oila a'zolarining o'zaro munosabatiga e'tibor qaratadi⁴.

³ Woodhouse C. G. A Study of 250 Successful Families. Social Forces, 1930, – V. 8 (4), – P. 511-532. doi:10.2307/2570367.

⁴ Pollak O. Design of a Model of Healthy Family

U sog'lom oila uchun er-xotinning bir-biriga ijobiy hissiyoti salbiy hissiyotidan ustunligi, turmush o'rtoqlardan birining ehtiyoji uchun ikkinchisi o'z ehtiyojidan voz kechishga tayyorligi, o'zaro bog'liqlik va ma'lum miqdorda mustaqillikka egaligi, ota-ona va farzandlar o'rtasida “oldi-berdi” an'analarining mavjudligi, turmush o'rtoqlarning qarindoshlari bilan sog'lom munosabatlari asos bo'lishini ta'kidlaydi.

Briklinlar (1970) mustahkam oila – har bir a'zo bir-birini tushunadigan, hurmat qiladigan va hissiy hamjihatlik hissinı saqlaydigan, tartibli, uyushgan oila deb ta'riflagan. Bu o'zaro tashvishlardan ko'ra, oilaning yagonaligini anglash va qadrlashdir. Bunda oila o'z a'zolarining umumiy kuchidan ulug'roq va uning barcha a'zolari uchun kuch manbayi hisoblanadi⁵.

Mustahkam oilalar inqirozli davrlarda tayanchdir. Entoni (1969) ta'kidlaganidek, mustahkam oilada qiyinchiliklarga yechim topish uchun oila a'zolari o'z resurslarini birlashtiradi va birgalikda harakat qiladi⁶. Zimmerman (1972) “Mukammal oilada barcha xususiyatlar me'yorda, ya'ni o'rta darajada bo'lishi lozim”, deb ta'riflaydi, uning fikricha, o'ta mehribonlik ham, o'ta qattiqqo'llik ham oilani mukammallikdan og'ishiga sabab bo'ladi⁷.

Malayziyalik olim Sulaymon (2011) “Namunali oila – bu baxtli oila barpo etishda jamiyatga o'rnak bo'ladigan oila”, deb ta'riflaydi. Har bir er-xotin namunali ota va ona bo'lish uchun ko'nikma va bilimlarni izlashi kerak⁸.

Namunali oila o'z qadriyatlar tizimini shakllantiradi va o'zi hamda farzandlari uchun qadriyatlari o'xshash bo'lgan do'stlarni tanlaydi⁹. Bu oilalar uchun uchta asosiy maqsad:

Relationships as a Basis for Evaluative Research. Social Services Review, 1957, 31, – P. 369-376.

⁵ Bricklin B., Bricklin P. M. Strong Child Strong Family. New York: Delacorte, 1970.

⁶ Anthony E. J. The mutative impact on family life of serious mental and physical illness in a parent. Canadian Psychiatric Association Journal, 1969, – V. 14, – P. 433-453.

⁷ Zimmerman C. C. The Future of the Family in America. Journal of Marriage and Family, 1972, – V. 34 (2), – P. 323-333. <https://doi.org/10.2307/350804>.

⁸ Sulaiman Saat. Tip Menjadi Ibu Bapa Mithali. PTS Millennia Sdn. Bhd. Selangor, 2011.

⁹ Zimmerman C., Cervantes L. F. Successful American Families. New York's Pageant, 1960.

Namunali oilalarning fazilatlarini

- a) ota-onani birga saqlash;
b) bolalarni to'g'ri tarbiyalash;
d) bolalarni hayotda to'g'ri maqsadga yo'naltirishlari hisoblanadi.

Namunali oila tadqiqotlari rivojlanishida alohida e'tirofga sazovor bo'lgan tadqiqotchi Xerbert Otto yaxshi va mustahkam oilalarning xususiyatlari, kuchli jihatlari o'rganadi va ulardan amalda qanday foydalanish lozimligi yuzasidan fikr yuritadi¹⁰. Uning fikricha, barcha oilalarning o'z kuchli jihatlari bo'lib, oila mustahkamlanishida ulardan to'g'ri foydalanish lozim.

Oilani ijobiy tomondan o'rganish yo'nalishida shiddatli o'sish Nik Stinnetning 1974-yili Oklaxoma shtati universitetida va 1977-yilda Nebraska universitetida ish boshlagan davridan boshlandi. Stinnett, De Frain va ularning ko'plab hamkasblari doimiy ravishda sog'lom, mustahkam oila bo'yicha maqola va kitoblarni nashr etishni boshladilar.

Oilalarning kuchli jihatlari, o'z funksiyalarini normal bajarishi va oila kuchlarini baholash bo'yicha Karolina oila tadqiqotlari markazida ham salmoqli ishlar bajarilgan. Trivette boshchiligidagi markaz olimlari: "barcha oilalarning o'z kuchli jihatlari bor, ana shu jihatlardan samarali foydalanishni rivojlantirish lozim", deb hisoblab, namunali oila uchun ijobiy oilaviy yakdillik tuyg'usini shakllantirish, oila a'zolari orasida qoniqarli o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, butun oila va alohida a'zolarning salohiyatini rag'batlantirish, oilaning inqirozli holatlar bilan samarali kurashish qobiliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini tushuntiradi¹¹.

Oilalar bilan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlangan xususiyatlar global miqyosda mustahkam oilalarning fazilatlar to'plami deyarli bir xilligini ko'rsatdi¹². Odamlar bir mamlakatdan boshqa mamlakat va bir madaniyatdan boshqa madaniyat sari o'zlarining oilalari nima uchun kuchli ekanligi haqida gapirganda, quyidagi 1-jadvalda keltirilgan xususiyatlar eng ko'p tilga olindi:

Minnatdorlik va mehr-muhabbat	Mas'uliyat va javobgarlik
G'amxo'rlik	Ishonch
Do'stlik	Rostgo'ylik
Individuallikka hurmat	Sadoqat
Xushchaqchaqlik	Halollik
Hazilkashlik	Saxiylik
Ijobiy muloqot	Birgalikda vaqtichog'lik
Maqto'vlar aytish	Ko'p miqdorda sifatli vaqt o'tkazish
His-tuyg'ularini izhor qilish	Yaxshi narsalarga vaqt ajratish
Ayblamaslik	O'zaro muloqotdan zavqlanish
Murosaga kela olish	Oddiy yaxshi vaqtlar
Norozilikni qabul qilish	Qiziqarli vaqtni birga baham ko'rish
Ruhiy farovonlik	Stress va inqirozni samarali boshqarish qobiliyati
Umid	Moslashuvchanlik
Iymon	Inqirozni imkoniyat sifatida ko'rish
Rahmdillik	Inqirozlardan birga kuchli bo'lib o'tish
Umumiy axloqiy qadriyatlar	O'zgarishlarga ochiqlik
Odangarchilik	Sabr-toqatlilik

Manba: De Frain va Asay (2007)

Ilmiy muammoning tavsifi va uning yechimi. O'zbekistonda zamonaviy namunali oila mezonlarini aniqlash maqsadida 2021-yilning sentabr-oktabr oylarida respublikaning 6 hududi – Andijon, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida so'rov o'tkazildi. Tadqiqotda 1380 ta oila ishtirok etdi. Ularning 42,2 %i shaharlarda va 57, 8%i qishloqlarda yashaydi. Ishtirokchilarning 70,1 % ini ayollar va 29,9 % ini erkaklar tashkil etdi. So'rovda ishtirok etganlarning 25,9 %i – 30 yoshgacha, 52,0 %i – 31-50 yoshgacha va 22,1 %i – 51 yoshdan kattalardir. Tadqiqotda ishtirok etgan shaxslarning 83,8 %i oilali, 7,9 %i turmush qurmagan, 4,0 %i beva va 3,7 %i oilasidan ajrashganlar.

¹⁰ Otto H. A. Criteria for assessing family strength. Family Process, 1963, – V. 2 (2), – P. 329-338. <https://doi.org/10.1111/j.1545-5300.1963.00329.x>.

¹¹ Trivette C. M. et.al. Assessing family strength and family functioning study. TECSE, 1990, – V. 10(1), – P.16-35.

¹² DeFrain J., Sylvia M. (2007). Strong Families around the World. Marriage & Family Review, – V. 41(1-2), – P. 1-10, DOI: [10.1300/J002v41n01_01](https://doi.org/10.1300/J002v41n01_01).

Shunday qilib, so'rov natijalariga ko'ra, o'zlarini namunali deb hisoblaydigan oilalarning turmush tarzida ma'naviy-axloqiy omillar ustunlik qiladi. O'zini namunali oila deb hisoblaydigan 70 % respondentlarning ma'lum qilishicha, ularning oilasida o'zaro tushunish mavjud, hatto moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelganida ham bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydi va hurmat qiladi. Respondentlarning 58 %i – o'z an'alariga ega bo'lgan katta oilada, 57 %i – Islom dini an'alariga rioya qiladigan oilada, 55 %i – ota-ona farzandlari uchun yaxshi namuna bo'ladigan ahil oilada, 41 %i – er-xotinning qiziqishlari bir-biriga mos keladigan va oila a'zolari bo'sh vaqtlarini doim birga o'tkazadigan oilada yashashadi.

Shu bilan birga, so'rovda qatnashganlarning 34 %i – qarindoshlar, qo'shnilar, muhtoj oilalar, yetimlarga yordam berib turishlarini va 46 %i – oila a'zolarining hammasi sog', sog'lom turmush tarzini olib boruvchi oilada yashashlarini bayon etishgan.

Namunali oila hayotning barcha jabhalarida jamiyatga o'rnak bo'ladigan, alohida a'zolar va butun oilaning ta'lim olishida muvaffaqiyat qozongan oiladir. Baxtli oila barpo etilishining zahirida er, xotin va farzandlar o'z zimmlariga olgan mas'uliyatni a'lo darajada bajarishlari zarur. Bu jihatlar ota-onaning o'z farzandlariga nisbatan mas'uliyati va bolalarning ota-onalari oldidagi farzandlik majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Baxtli oila – bu er, xotin, ota-ona, bolalar, nevaralar, shuningdek, bir-biriga va hayotning o'ziga yaxshi munosabatda bo'lgan qarindoshlardan iborat ijtimoiy guruh. Ular baxtli yashashga qodir, hayotda erishilishi kerak bo'lgan maqsadlar haqida

aniq fikrlarga ega, ular alohida yoki birgalikda bo'lgan vaqtlarida optimistik va bir-biriga ishonadi, o'zlarida bor narsaga shukronalik hissi bo'ladi. Shu munosabat bilan deyarli barcha o'zini namunali oila deb hisoblovchi respondentlar "Sizning oilangiz baxtlimi?", degan savolga tasdiq javobini berishdi (1-rasm).


Yakuniy qism. Baxtli oilani qanday barpo etish mumkin? Namunali va baxtli oila modellarini o'rganish asosida baxtli oila qurishning muhim shartlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Sherik tanlashda va yangi yosh oilani tuzishda juftliklarni har qanday qiyin hayotiy sharoitda ham birlashtiradigan belgilar, manfaatlar, qadriyatlar uyg'unligini hisobga olish kerak. Oila a'zolarining jismoniy, iqtisodiy va psixologik himoyasini amalga oshirish kerak.

2. Oilada doimiy ijobiy muloqot o'rnatish – turmush o'rtoqlar, bolalar, ota-onalar, buvilar va bobolar bilan birgalikda dam olish, bir-birining manfaatlariga nisbatan hurmat ko'rsatish. Oilada g'amxo'rlik va muhabbat, ota-ona, aka-uka, opa-singillar bilan munosabatlar – har bir insonning hayotiy elementi, uning salomatligi, nekinligi va hayotdagi muvaffaqiyatining kafolati.

3. Kundalik hayot kechirishda qulaylik yaratish, qulay yashash sharoitlari, oila har bir a'zosining barcha hayotiy ehtiyojlarini qondirish (oziq-ovqat, kiyim-kechak, dam olish va hokazo), sport bilan shug'ullanish, o'yinlar o'ynash, sog'lom turmush tarzini olib borish.

4. Uy xo'jaligini birgalikda boshqarish, turmush o'rtoqlar va boshqa oila a'zolari o'rtasida uy



1-rasm. Sizning oilangiz baxtlimi?, %

vazifalarini teng taqsimlash, bolalarni tarbiyalashda erkaklar va kattalarning ijobiy ishtiroki.

5. Har bir oila a'zosiga rivojlanish, o'rganish, ishlash, martaba o'sishiga erishish, ijodkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatini berish.

6. Mahalliy tarixiy va madaniy (shu jumladan, diniy) me'yorlar va qoidalarga rioya qilish, avloddan

avlodga o'tadigan oilaviy qadriyatlarni yaratish va oilaning barcha a'zolari xotirasini saqlab qolish.

Eng muhimi, namunali oilani qurish umr bo'yi davom etadigan uzoq va uzluksiz jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. De Frain J., Sylvia M. (2007). Strong Families around the World. *Marriage & Family Review*, – V. 41(1-2), – P. 1-10, DOI: [10.1300/J002v41n01_01](https://doi.org/10.1300/J002v41n01_01).
2. Доброгорская Е.А. Семья в современном мире. Психолого-педагогические проблемы личности и социального взаимодействия: материалы IV международной научнопрактической конференции 15-16 мая 2013 года. – Прага: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2013 – 316 с.
3. Woodhouse C. G. A Study of 250 Successful Families. *Social Forces*, 1930, – V. 8 (4), – P. 511-532. doi:10.2307/2570367.
4. Pollak O. Design of a Model of Healthy Family Relationships as a Basis for Evaluative Research. *Social Services Review*, 1957, 31, – P. 369-376.
5. Bricklin B., Bricklin P. M. Strong Child Strong Family. New York: Delacorte, 1970.
6. Anthony E. J. The mutative impact on family life of serious mental and physical illness in a parent. *Canadian Psychiatric Association Journal*, 1969, – V. 14, – P. 433-453.
7. Zimmerman C. C. The Future of the Family in America. *Journal of Marriage and Family*, 1972. – V. 34 (2), – P. 323-333. <https://doi.org/10.2307/350804>.
8. Sulaiman Saat. Tip Menjadi Ibu Bapa Mithali. PTS Millennia Sdn. Bhd. Selangor, 2011.
9. Zimmerman C., Cervantes L. F. Successful American Families. New York's Pageant, 1960.
10. Otto H. A. Criteria for assessing family strength. *Family Process*, 1963, – V. 2 (2), – P. 329-338. <https://doi.org/10.1111/j.1545-5300.1963.00329.x>.
11. Trivette C. M. et.al. Assessing family strength and family functioning study. *TECSE*, 1990, – V. 10(1), –P.16-35.
12. De Frain J., Sylvia M. (2007). Strong Families around the World. *Marriage & Family Review*, – V. 41(1-2), – P. 1-10, DOI: [10.1300/J002v41n01_01](https://doi.org/10.1300/J002v41n01_01).